

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



2018 yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 609,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **21,4 %** ga o'sishni ta'minladi.

Ish haqi. 2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



- ta'limda **21 533** ta muassasada **999,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 38,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **7 496,1** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 30,0 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 250,4** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 15,2 % ga o'sdi;

- sanoatda **614** ta korxonada **451,6** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **6 621,5** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 26,5 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 443,6** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 30,2 %ga o'sdi;



- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **1 422** ta muassasada **428,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **2 719,4** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 10,9 %ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 058,5** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 16,8 %ga o'sdi;

• tashish va saqlashda **204** ta korxonada **115,0** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 4,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1 481,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,9 %ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 148,3** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 22,1 %ga o'sdi;




• moliyaviy va sug'urta faoliyatida **138** ta muassasada **67,0** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1 228,3** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,9 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 054,9** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning davriga nisbatan 25,4 %ga o'sdi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, ming kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Respublika bo'yicha - jami	57 941	2 586,2	24 968,5	1 609,1
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	614	451,6	6 621,5	2 443,6
Qurilish	153	41,2	482,9	1 953,1
Savdo	439	60,3	591,9	1 635,0
Tashish va saqlash	204	115,0	1 481,9	2 148,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	154	6,8	46,7	1 144,9
Axborot va aloqa	236	29,0	527,0	3 030,1
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	138	67,0	1 228,3	3 054,9
Ta'lim	21 533	999,2	7 496,1	1 250,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 422	428,2	2 719,4	1 058,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2 102	27,8	250,9	1 505,3
Boshqa faoliyat turlari	30 946	360,1	3 165,1	1 464,7

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori (2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



2018 yil yanvar-iyun oylarida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 89,9 % ga, axborot va aloqada 88,3 % ga, sanoatda 51,9 % ga, tashish va saqlashda 33,5 % ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 34,2 % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 28,8 % ga, ta'limda 22,3 % ga respublikadan kamni tashkil etmoqda.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




2018 yil yanvar-iyun oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqada 32,9 %, sanoatda 30,2 %, qurilishda 26,4 %, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 25,4 % kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-iyun oylarida **426,5 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-iyun, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **2 252,1** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **140,0** %), Navoiy viloyatida **2 153,0** ming so'mni (**133,8** %) va Toshkent viloyatida **1 768,5** ming so'mni (**109,9** %) tashkil etgan bo'lsa, Namangan viloyatida **1 263,3** ming so'mni (**78,5** %), Samarqand viloyatida **1 273,6** ming so'mni (**79,2** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	1325,9	1609,1	121,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1260,3	1564,7	124,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1208,5	1502,0	124,3
Buxoro	1300,1	1494,1	114,9
Jizzax	1163,8	1370,3	117,7
Qashqadaryo	1223,0	1430,5	117,0
Navoiy	1833,0	2153,0	117,5
Namangan	1045,6	1263,3	120,8
Samarqand	1081,8	1273,6	117,7
Surxandaryo	1082,0	1314,9	121,5
Sirdaryo	1134,6	1375,9	121,3
Toshkent	1403,5	1768,5	126,0
Farg'ona	1123,8	1319,7	117,4
Xorazm	1101,5	1322,5	120,1
Toshkent sh.	1786,4	2252,1	126,1

*Davlat statistika qo'mitasining
Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi*

Nashr uchun mas'ul:

B.Shodiyev
(71) 230-80-65